

## TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLARDA KREDIT, UNING TURLARI VA FUNKSIYALARI

**SHARIPOVA MOHICHEHRA  
FAZLIDDIN QIZI**

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-5-pp48-52>

**Annotatsiya.** O'zbekiston turli xalqaro va mintaqaviy moliya, valyuta va kredit tashkilotlariga a'zo bo'ldi va samarali hamkorlik qilmoqda. Jahon miqyosida ham tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi kuzatilmoqda.

**Kalit so'zlar.** Investitsiya, modernizatsiya, milliy iqtisodiyot, texnologiya, loyiha, xalqaro valyuta, Yaponiya, Andijon, Shvesariya, Markaziy, Yevropa.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach xalqaro munosabatlar sub'yektiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi 1991-yil 31-avgustda qabul qilgan davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonotida – "O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lib, xalqaro munosabatlarda suveren davlat, xalqaro huquq sub'yekti bo'lib, maydonga chiqadi deyilgan. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston turli xalqaro va mintaqaviy moliya, valyuta va kredit tashkilotlariga a'zo bo'ldi va samarali hamkorlik qilmoqda. Jahon miqyosida ham tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi kuzatilmoqda. Jumladan, jahon statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, 1990-2003-yillarda jahon yalpi ichki mahsuloti (joriy baholarda) 22,6 mlrd. AQSh dollaridan 36,1 mlrd. dollarga yoki 1,6 barobar oshgan bo'lsa, mamlakatning jami eksport hajmi 4,3 mlrd. dan 9,2 mlrd. AQSh dollariga yoki 2,2 marta oshdi. To'g'ridan-to'g'ri investisiyalar 209 mlrd. dan 560 mlrd. AQSh dollariga yoki 2,7 marta oshdi. Xalqaro munosabatlarning ma'lum qismi xalqaro kredit munosabatlariga to'g'ri keladi.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlarga ega:

- Qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat, tashkilot va muassasalar, huquqiy shaxslar (banklar, kompaniyalar), xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadi.

- Qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi.

- Qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan kredit fondining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin. Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi.

- kapitalning markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi.
- har xil valyutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro va mintaqaviy moliya, valyuta va kredit tashkilotlari valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarni nazorat qilish maqsadida davlatlararo kelishuvga binoan tuzilgan. Bunday tashkilotlarga Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro taraqqiyot assosiasiyasi, Xalqaro moliya korporasiyasi, Yevropa Qayta tiklash va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Yevropa investisiya banki, Xalqaro hisob-kitob banki, Investisiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi, Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Sarmoyaga oid tortishuvlarni muvofiqlashtirish xalqaro markazi va boshqalar kiradi.

XVF – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsuslashtirilgan muassasasi maqomiga ega bo'lgan valyuta-kredit tashkiloti bo'lib valyuta kurslarini tartibga solish va ularga rioya qilinishini nazorat etish me'yorlarini belgilash, shuningdek, to'lov balanslarining beqarorligi munosabati bilan valyuta qiyinchiliklari vujudga kelganda o'z a'zolariga valyuta resurslaridan berish yo'li bilan xalqaro savdo va savdo hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi. XVF – AKShning Brutton Vuds Xalqaro valyuta-moliya konferensiyasida 1944-yilda tuzilgan bo'lib, 1947-yildan faoliyat ko'rsata boshlagan. XVF boshqaruvi beshta departamentdan (Afrika, Yevropa, Osiyo, O'rta Sharq va G'arb) tuzilgan. XVF kapitali uning mijozlari kvotasiga mos to'lanadigan badallar hisobiga shakllanadi. Kvota lotincha Quota – qism, hissani bildirib, u davlatlararo shartnomalarga ko'ra ayrim yoki bir guruh tovarlar yuzasidan kvota o'rnatiladiki, unga muvofiq mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhi faqat belgilangan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi mumkin. Kvotalar o'rnatishdan maqsad bozordagi narxni ma'lum maqsad yo'lida o'zgartirib turish, chunki kvota tovar taklifini chegaralaydi, bu bilan narxga binobarin foyda ko'rishga ta'sir etadi.

Kvota mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga, jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdodagi o'rniga qarab belgilanadi. 1947 -yilda XVF ga 49 mamlakat a'zo bo'lib, ular kvotalarning umumiy mablag'i 7,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. 1991-yilning o'rtalariga kelib, XVF a'zolari 155 taga va uning kapitali 90 mlrd. dollarga yetdi. Shundan uchdan ikki qism sanoati rivojlangan mamlakatlarga, shu jumladan AQSh 1/5 qismi, 1/3 qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Hozirgi XVF a'zolarining soni 181 tadan ortiq. XVF boshqaruv organlariga kvotalar o'lchamiga qarab, mamlakatlar orasida ovoz taqsimlanadi. Barcha ovozning 46% AQSh va YeF davlatlariga tegishli, qolgan ovozlar rivojlanayotgan davlatlarga tegishli. XVF boshqaruv organi bo'lib, boshqaruv kengashi hisoblanadi. U har yili bir marotaba qatnashuvchi mamlakat vakillari bilan birga to'planadi. XVFning ijro etuvchi organi Direktorat hisoblanadi, u 6 a'zodan, ya'ni ko'proq kvotaga ega mamlakat a'zolaridan tashkil topgan. Shuningdek, unga geografik belgiga ko'ra tanlab olingan olti a'zo ham hisobga olingan. XVFning majlis o'tkazuvchi organi boshqaruv qo'mitasi – sho'ba qo'mitasi hisoblanadi va uning tarkibiga 22 ta mamlakatning moliya vazirlari kiradi.

### **XVF kreditlari bo'linadi:**

1. XVFning zaxira pozitsiyasi chegarasida turuvchi mamlakatlarga beriladigan kredit. To'lov balansi defitsitini qoplash uchun mamlakatlar valyuta fondidan qarz

olishlari mumkin. Bu qarz milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish yo'li bilan 3-5 yil muddatga olinadi. Ssudaning to'lanishi esa aksincha bo'ladi. Milliy valyuta erkin konverterlanadigan valyutada sotib olinadi. 25% kvota atrofida mamlakat kreditni cheklashlarsiz olishi mumkin. Shuningdek, oltin fond me'yorida belgilangan kredit hajmida xorijiy valyutada kredit olishi mumkin. Bu kredit salmog'i 200 % kvotadan oshmasligi kerak.

2. Yuqori zaxira ulushiga beriladigan kredit. Bunday ssudalar mamlakat valyutasining iqtisodiy holatini o'rganib chiqib, XVFnig barqarorlashtirish chora-tadbirlari talabini bajargandan so'ng beriladi. XVFnig barqarorlashtirish dasturi ichki kreditlarni chegaralash, byudjet xarajatlarini kamaytirish kabi masalalarni hal qiladi. Biroq XVFDan kredit olish mamlakatlarga xususiy banklardagi kreditlarni hisob-kitob qilish imkonini beradi. XVF davlatlararo valyuta-kredit munosabatlarini boshqarishda asosiy o'rin egallaydi. Brutton Vudsdagi kelishuvga binoan fond oldiga a'zo mamlakatlar valyuta paritetlarini boshqarish va qo'llab - quvvatlash, valyuta kurslarini boshqarish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston 1996-1997-yillarda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi bo'yicha XVFDan 259 mln.\$ madad olgan va u valyutani qo'llab - quvvatlashga sarflangan. O'zbekiston XVFga 1992-yilning sentabridan tashkilotga a'zo sanaladi. Jahon banki dunyo miqyosida yirik valyuta kredit tashkiloti hisoblanadi. Uning prezidenti Djeyms Vulfenson 10 yillik faoliyatidan keyin 2005-yilning may oyidan lavozimidan bo'shadi va uning o'rniga 2005-yilning 1-iyunidan AQSh Mudofaa vaziri o'rinbosari Pol Fulfovis saylandi. Jahon banki 43 yirik moliyaviy muassasalardan iborat bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

- 1.Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot banki (XKTTB)
- 2.Xalqaro taraqqiyot assosiasiyasi (XTA yoki Xalqaro rivojlanish uyushmasi)
- 3.Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)
- 4.Investisiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA)
- 5.Sarmoyaga oid tortishuvlarni muvofiqlashtirish xalqaro markazi (SOTMXM).

XVFga a'zo mamlakatlarga XKTTBga a'zo bo'lish huquqiga ega. XKTTB BMTning maxsus muassasasi davlatlararo investision instituti hisoblanadi. XKTTB Brutton Vuds konferensiyasi qaroriga binoan va XVF ta'sisligida tashkil topgan. Uning ustavi rasmiy ravishda 1945-yilda kuchga kirgan va 1946-yildan ish boshladi. U Vashingtonda joylashgan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyotiga uzoq muddatli kreditlar va qarzlar berish, xususiy investisiyalarni kafolatlashdan iborat. XKTTB tomonidan kreditlar davlat kafolati ostida beriladi. XKTTB shuningdek boshqa banklarning uzoq muddatli kreditlari bo'yicha kafolatlar beradi. Bank o'zining krediti bilan ob'yektning 30% qiymatini qoplaydi.

Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki (YeKTTB) 1990-yilning 25-mayida Fransiya Prezidentining tashabbusi bilan dastlab Parijda tashkil topdi. Bank 1991-yilning 28-martidan o'z faoliyatini boshladi.

Bank boshqaruvchilarining birinchi yig'ilishi 41 ishtirokchi mamlakatlar vakillari ishtirokida 15-17 aprel (1991-y.) kunlari Londonda o'tkazilib, unda dastlabki Prezident va direktorat saylandi. Aynan 1991-yil 15-apreldan boshlab, bank operatsiyalarini amalga oshirishni rasman boshlagan, iyun oyida esa birinchi loyiha ma'qullandi. Jak Attali bankning 1991-yil apreldan 1993-yilning iyunigacha dastlabki Prezidenti, Jak de Larozyer 1993-yil sentabrdan - 1998-yilning yanvarigacha, Xorst Keller 1998-yilning sentabridan 2000-yilning apreligacha va Jan Lemyer 2000-yilning

iyulidan hozirga qadar rahbarlik qilmoqda. O'zbekiston YoKTTBga 1992-yilning 30-aprelidan a'zo hisoblanadi. 1994-yilda Kenji Nakazova rahbarligida Toshkentda bankning vakolatxonasi ochilgan. Hozirgi vaqtda bankning 60 mamlakatdan 62 aksioneri mavjud. Bankning jami kapitali 19448,8 mln. yevroni tashkil etadi, shundan O'zbekistonning hissasi 42 mln. yevroni (0,21%) tashkil etadi. Unda AQShning hissasi 10,32%. Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniyakabi mamlakatlarning har birining hissasi 8,76% dan, Rossiyaniki 4,13 fozni tashkil etadi. Bankning asosiy maqsadi sobiq socialistik mamlakatlarga rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishga xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tarkibiy va tarmoq islohatlarini amalga oshirish, ularni jahon hamjamiyati integrasiyasiga ko'maklashish. Harakat miqyosi Markaziy Yevropadan Markaziy Osiyogacha bo'lgan o'tish iqtisodiyotdagi mamlakatlar. Bank bilan O'zbekistonning birinchi 60 mln. \$ lik krediti respublikamiz Prezidentining 1993-yilda Buyuk Britaniyaga qilgan rasmiy safari vaqtida YeKTTB shtab-kvartirasida bo'lishida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha imzolangan, bank bilan O'zbekiston imzolagan ikkinchi kredit liniya 1996-yilda ochiq iqtisodiyotni rivojlantirishga 120 mln \$ hajmida bo'lib, undan 60 mln \$, O'zbekiston milliy banki, 30 mln \$ Asaka bank, 15 mln \$ Sanoat qurilish banki va yana 15 mln \$ Paxta bank orqali foydalanilgan. Uchinchi kredit liniya keyingi yillarda tijorat banklari orqali 100 mln \$ hajmda bo'lgan va hozir ham bank bilan respublikamizning aloqalari (keyingi 10 yilda 1,4 mlrd. dollar, 10 loyiha) yanada rivojlanmoqda. Bankdan olingan kreditlar orqali "O'zbeklizing interneysnl AV" kompaniyasi tuzildi. Uning ishtiroki bilan O'z DEU bank faoliyat ko'rsata boshladi, Zarafshon-Nyumen qo'shma korxonasiga, "O'zbekneftgaz"ga, Xitoydan 12 elektrovoz olishga, Toshkent aeroportini qayta qurishga, Toshkent lokomotiv deposini qayta qurishga va boshqalarga foydalanilgan. 2002-yilda bank umumiy holda eng ko'p 102 loyiha 3,9 mlrd. yevro miqdorida kredit ajratib, o'z tarixida rekord natijaga erishdi. Uning 1,29 mlrdi (33%) Rossiyaga, 1,27 mlrdi o'tish davridagi mamlakatlarga (Markaziy Yevropa va Boltiqbo'yi respublikalari – 32%), 1,35 mlrdi (35%) Markaziy Osiyo (6%), Janubiy va Sharqiy Yevropa (22%) va Kavkaz mamlakatlari (7%) to'g'ri keladi. Bank boshqaruvchilarning 2003-yil 3 – 5-may kunlari Toshkentda o'tkazilgan o'n ikkinchi yillik yig'ilishida (yig'ilishlarning 6 tasi Londonda, 1 tadan Budapesht, Sank-Peterburg, Sofiya, Kiyev, Riga, Buxarestda o'tkazilgan) quyidagi 3 ta shartnoma imzolangan.

1. YoQTTB va Shvetsariya o'rtasida. Unga asosan Shvetsariya Andijonni isitish tizimini qayta qurishga 4,3 million dollar ajratadi. Shu maqsadga Yaponiya ham 1,5 million dollar ajratadi. Bundan tashqari Shvetsariya 3 million yevro hajmda O'zbekiston va Qozog'istonga konsalting xizmati uchun kredit ajratdi.

2. Asaka bank orqali kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga 15 million dollar hajmda kredit liniyasi kelishilgan.

3. YoQTTB- Aziya invest banki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari o'rtasida savdo operatsiyalari uchun bir million dollar hajmda kredit ajratish kelishilgan.

Hozirgi vaqtda YoQTTB orqali mikrokreditlar olish Paxta bank, Ipoteka bank, Ipak yo'li va Hamkor bank orqali yo'lga qo'yilgan bo'lib, bank bo'linmalari mijozning biznesini baholab, uni faoliyatini o'rganib, kredit ajratadilar.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 1966-yilda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish maqsadida Filippinning Manila shahrida tashkil etilgan. Bank hukumat va xususiy korxonalarga kredit beradi. Kredit loyiha

qiymatining 25% idan yoki 75 mln. AQSh dollaridan oshmagan holda beriladi. Har bir loyiha uchun garov talab etiladi.

O'zbekiston OTBga 1995-yilda Markaziy Osiyoda 15-chi, a'zo mamlakatlar ichida 22- hisoblanadi. OTB xalqaro moliya instituti bo'lib, hozir 63 a'zoga ega. Bugungi kunda respublikamizda kredit shaklida amal qilayotgan chet el va xalqaro molyaviy tashkilotlar investisiyalarining 33,6 %i OTB ga to'g'ri kelmoqda. Bankning mablag'lari asosan ikki yo'nalishda - maxsus fond orqali va oddiy fond orqali beriladi. Maxsus fond mablag'lari kam rivojlangan a'zo mamlakatlarga imtiyozli kredit berish va texnik yordam ko'rsatishga yo'naltirilsa, oddiy fond mablag'lari tijorat yo'nalishidagi kreditlar yuqori foiz stavkasi bilan 10-15 yilga beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Prezidentimizning 2018-yil 22-noyabrda o'tkazilgan bank tizimidagi muammolarga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasining 25.04.1996-yilda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni(2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-sonli Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan).
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni (30.08.2003 da qabul qilingan).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi №PF4947 sonli Farmoni. //Xalq so'zi. 2017- yil 8-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-avgustdagi №3-5024 sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi №PF- 5635 sonli Farmoni. //Xalq so'zi. 2019-yil 17-yanvar.